# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY O‘YINLARNING AHAMYATI

**Saparbayeva Iroda**
Nukus davlat pedagogika instetuti Elikqal‘a fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Kalit so‘zi:** maktabgacha ta'lim, ekologik tarbiya, milliy o‘yinlar, ekologik madaniyat,t abiyatga muhabbat, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, bolalar tarbiyasi, ekologik ong, pedagogik faoliyat.

Bugungi kunda yosh avlodni tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash,ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va atrof-muhitga nisbatan ma'sulyatli munosabatni rivojlantirish muhim pedogogik vazifalardan biri hisoblanadi. Wzbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha talim va tarbiya twg’risida”gi Qonunida “bolalarni Vatanga muh’abbat, meh’natga, wz xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga h’urmat bilan munosabatda bwlish, atrof-muh’itga eh’tiётkorona munosabatda bwlish ruh’ida tarbiyalash” [1] majburiyatlari belgilab berilgan. Bugungi kun ilim fani ekologiyani faqat tirik organizimlar o‘rtasidagi munosabatlar yoki organizmlardan tizimlarga xos qonunyatlarni o‘rganish bilan chegaralanib qolmay tabiyat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning eng optimal yechimlarini asoslab berish lozim ekanligini talab qilmoqda.

Demak mazkur talablar asosida maktabgacha ёshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirishning dolzarbligini bildiradi. Malumot wrnida takidlash joiz «Ekologiya yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib oykos(oikos)-yashash makoni, o‘rni, joyi hamda logos (logos)-fan mantiq so‘zlari birikmalaridan tuzilgan atamadir.[2]

**Bolalarni tarbiyalashda tabiyatning ahamiyati** - bu bolani tug‘ilib o‘sgan joyi haqidagi boshlang’ich bilimlarni bilishi, ekologik tushunchalarini boyitishi, ekologik madaniyatini wstirish va rivojlantirishdan iboratdir. Bolalarning ekologik bilimga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish MTTda bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Sababi, mazkur tarbiya ywnalishining asosiy maqsadi avvalo bolalarning tabiyatga bo‘lgan muhabbatini uyg’otish zarurligidan kelib chiqadi. Chunki u orqali tabiyat bilan twg’ri munosabatni shakkllantirish, yani uni asirash - avaylashga, ehtiyotkorlikni esdan chiqarmaslikni wrgatadi.

**Vatanparvarlik** Ushbu bu muhim vazifani amalga oshirish xalq ma’orifining boshlang’ich zvenosi bo’lgan maktabgacha tarbiya tashkilotining wrni beqiёsdir. Tabiyatdan unumli foydalanishga o’rgatish uchun bolalar ongiga ekologik madaniyatni shakllantirish zarur bwladi. Bolalar tabiyat haqidagi elementar bilimlarni egallab olib o’simliklarni o’stirish, hayvonlarni parvarishlash, tabiyatni kuzatish va Ona-Vatanga muhabbatni oshirishni wrganib boradilar [4]. Bunda ekologiyani asrash -Vatanni asrashdir degan g’oyalar ah’amiyatli h’isoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiyat bilan tanishtirishda turli hil mashg‘ulotlar o‘tqazish, masalan, ekuskursiya, o‘yinlar o‘ynash,mehnat, kundalik hayotda qilinadigan mehnat faoliyatlari kiradi. Ushbu mashg‘ulotlarning ayrimlarida boshlang‘ich bilimlar shakillanadi. Buning uchun tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko‘rish, badiiy asarlarni, hikoyalarni o‘qish, diafilm va boshqalarni ko‘rsatishdan foydalanadi. Ya. A. Komenskiy o'yinni bola faolyatining, uning tabiyati va mayillariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o‘yin bolaning barcha qobilyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faolyatdir, o‘yinda borliq haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiib, nutqi rivojlanadi [3]. Bundan ko‘rishimiz mumkin maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda milliy o‘yinlardan foydalanish samarali pedogogik vositalardan biri hisoblanadi.

Milliy o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lib, ularning qiziqishi, faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. O‘zbek xalqining milliy o‘yinlari, urf-odatlari va an'analari orqali bolalarda tabiyatga hurmat, jonivorlarga mehr, tabiiy boyliklarni asrash hamda atrof-muhitni ozoda saqlash kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.



© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Milliy o‘yinlar bolalarda tabiyat bilan uyg‘unlikda yashash ko‘nikmalarini shakillantiradi masalan: - "Gul ekamiz" o‘yin orqali o‘simliklarga g‘amxo‘rlik, - "Qushlarga yordam" o‘yin orqali hayvonot dunyosiga mehr uyg‘otish. Bu o‘yinlar bolalarni nafaqat jismoniy balki ekologik tarbiyasiga ham xizmat qiladi. Xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, ertaklar va rivoyatlar orqali bolalarga ekologik tushunchalar singdiriladi. Masalan:-"Yer -ona, suv-hayot" kabi maqollar, - "Tabiyatni asrash" g‘oyasi aks etgan ertaklar. Bu vositalar tabiyatga nisbatan qadryatlarni shakillantiradi. Milliy urf odatlar (Navro‘z bayrami, daraxt ekish an'analari) va boshqalar orqali bolalarda: - tabiatni asrash ma'daniyati; - jamoaviy faoliyat; - ekologik ma’sulyat rivojlanadi.

Milliy qadryatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish quyidagi natijalarni beradi:

-Interaktiv mashg‘ulotlar samaradorligini oshiradi;

-Bolalarda qiziqish kuchayadi;

- Ekologik bilimlar kuchayadi. [3]

Demak milliy o‘yinlar orqali xalqimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, tabiatga bo‘lgan ehtiromi va ajdodlarimizning purma’no an’analarini o‘zida mujassam etgan eng ta’sirchan tarbiya vositalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida milliy o‘yinlardan foydalanish quyidagi muhim ahamiyat kasb etadi:

**Tabiat bilan uyg‘unlik va muhabbat:** «Oq terakmi, ko‘k terak», «Chustiy», «Qaldirg‘och» yoki turli hayvonlar va o‘simliklar olamiga bag‘ishlangan xalq o‘yinlari bolalarni tabiat hodisalari, hayvonlarning xatti-harakatlari va o‘simliklar dunyosi bilan yaqindan tanishtiradi. Bu orqali bolada tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va g‘amxo‘rlik tuyg‘usi tabiiy ravishda uyg‘onadi.

**Amaliy ko‘nikma va ekologik ong:** O‘yin jarayonida bolalar o‘simliklarni e’zozlash, hayvonlarga ozor bermaslik, atrof-muhitni toza saqlash kabi qoidalarni shunchaki yod olmaydi, balki ularni o‘z harakatlari orqali his qiladi va amalda qo‘llashni o‘rganadi.

**Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi:** Milliy o‘yinlar bolalarni ona zaminga hurmat ruhida tarbiyalab, ularda ekologik javobgarlik hissini shakllantiradi. Bola o‘yin orqali tabiatning har bir ne’mati (suv, havo, o‘simlik va hayvonot olami) hayotimizning ajralmas qismi ekanini anglaydi.

**Xulosa o‘rnida:** Ekologik tarbiyani milliy o‘yinlar vositasida olib borish – bu yosh avlodni ona tabiatni sevuvchi, uning boyliklarini e’zozlovchi, ekologik jihatdan ongli va barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishning eng samarali, qiziqarli hamda milliy ildizlarimizga asoslangan yo‘lidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respulikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya” to‘g‘risida O‘RQ-595 son Qonuni. 16.12.2019. Lex.uz
2. F.R.Qadirova, SH.K.Toshpo‘latova, M.N.Azamova,N.M. Kayumova, "Maktabgacha pedagogika "-Toshkent9-2019/308-22-betlar/
3.P.S.Sultonov "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari" - Toshkent-2007 /17-bet/
4. M.A.Pazilov. “Iqtisoslashgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda kognitiv pedagogikaning hususiyatlari” /Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali №12/3. 2022. /199-bet/
5. Nodirova .N.Z "Tabiat bilan tanishtrish va ekologik tarbiya" o‘quv materiali -Toshkent-2021/24-bet/



© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.